TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI REPRODUKTIV VA IJODIY KOMPONENTLARI BOG‘LIQLIGINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Rashidxon Uulu Atabek
ORCID: 0009-0009-3327-4909
Email: atabekrashidxonugli@gmail.com
Turan Unternatioanl University o‘qituvchisi,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24124945

Annotatsiya:. «Talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan tabiiy ketma-ketlik emas, balki maxsus pedagogik va epistemik shartlar asosida boshqariladigan transformatsion jarayon sifatida baholash mumkin. Reproduktiv faoliyat talabaning tayanch tushunchalar, qonuniyatlar, usullar va faoliyat algoritmlarini egallashini ta’minlaydi; ijodiy faoliyat esa mazkur bilimlarni nostandart vaziyatda qayta tuzish, transfer qilish va yangi pedagogik mahsulot yoki yechim yaratishga xizmat qiladi. Ularning samarali bog‘lanishi tayyor bilimni shunchaki takrorlashdan ijodiy mahsulot yaratishga keskin sakrash orqali emas, balki epistemik verifikatsiya, rekonstruksiya, transfer, generatsiya va refleksiya jarayonlari vositasida ro‘y beradi.».

Kalit so‘zlar: reproduksiya, verifikatsiya, rekonstruksiya, transfer, generatsiya, reffleksiya

Аннотация: «Взаимосвязь между репродуктивным и творческим компонентами самостоятельной работы студентов можно рассматривать не как спонтанную естественную последовательность, а как трансформационный процесс, управляемый на основе специальных педагогических и эпистемических условий. Репродуктивная деятельность обеспечивает овладение студентом базовыми понятиями, закономерностями, методами и алгоритмами деятельности; творческая же деятельность служит реструктуризации этих знаний в нестандартных ситуациях, их трансферу и созданию нового педагогического продукта или решения. Их эффективная взаимосвязь достигается не резким скачком от простого воспроизведения готовых знаний к созданию творческого продукта, а посредством процессов эпистемической верификации, реконструкции, трансфера, генерации и рефлексии».

Ключевые слова: репродукция, верификация, реконструкция, трансфер, генерация, рефлексия.

Abstract: "The interconnection between the reproductive and creative components of students' independent study can be characterized not as a spontaneous natural progression, but as a transformative process governed by specific pedagogical and epistemic conditions. Reproductive activity ensures the student's mastery of fundamental concepts, principles, methods, and procedural algorithms; creative activity, in turn, facilitates the restructuring of this knowledge in non-standard situations, its transfer, and the development of a novel pedagogical product or solution. Their effective integration is achieved not through an abrupt leap from mere replication of codified knowledge to creative generation, but via the mediated processes of epistemic verification, reconstruction, transfer, generation, and reflection."

Keywords: reproduction, verification, reconstruction, transfer, generation, reflection.

KIRISH

Reproduktivlik ijodkorlikning antonimi emas, balki ma’lum sharoitlarda uning kognitiv materiali va boshlang‘ich tayanchidir. Biroq reproduksiya o‘z-o‘zidan ijodga aylanishi mumkin emas. O‘tish uchun talaba bilimni shunchaki qayta tiklashdan uning kelib chiqishi, ishonchliligi, dalillari, qo‘llanish chegaralari, boshqa bilimlar bilan munosabati va yangi vaziyatdagi funksional imkoniyatlarini tahlil qilishga o‘tishi lozim. Ana shu o‘tish nuqtasi mazkur dissertatsiyada epistemik bog‘lovchi mexanizm sifatida qaraladi.

Chi va Wylie ishlab chiqqan ICAP modeli ham bu fikrni zamonaviy kognitiv nuqtayi nazardan tushuntirish imkonini beradi. Model o‘rganuvchining ishtirokini passiv, faol, konstruktiv va interaktiv shakllarga ajratadi hamda oddiy ishlov berishdan mavjud axborot chegarasidan chiqib yangi xulosa, izoh yoki aloqalarni generatsiya qilishga o‘tish chuqurroq o‘zlashtirish bilan bog‘liq ekanligini nazarda tutadi. Reproduktiv topshiriqlarning bir qismi faol darajada qolishi mumkin, ijodiy mustaqil ish esa, odatda, konstruktiv va interaktiv jarayonlarni — yangi izoh yaratish, asoslash, bahslashish va bilimni birgalikda qayta qurishni talab qiladi.

METODIKA VA NAZARIY ASOSLAR

Bundan kelib chiqib, reproduktiv va ijodiy komponentlar munosabatini quyidagi oddiy chiziqli model bilan cheklash to‘g‘ri emas:

reproduksiya → ijod. Pedagogik jihatdan samaraliroq model spiralsimon va rekursiv xususiyatga ega: reproduksiya → verifikatsiya → rekonstruksiya → transfer → generatsiya → refleksiya → takomillashtirilgan reproduksiya/yangi generatsiya.

Ushbu ketma-ketlik mazkur dissertatsiya doirasida “epistemik transformatsiya sikli” sifatida taklif etilishi mumkin. Bu mualliflik konstruksiyasida:

reproduksiya bosqichida talaba tayanch tushuncha, qonuniyat, nazariya yoki usulni to‘g‘ri qayta tiklaydi;

verifikatsiya bosqichida bilimning manbasi, dalili, aniqligi, boshqa manbalar bilan mosligi va qo‘llanish chegaralarini tekshiradi;

rekonstruksiya bosqichida bilimlarni qiyoslaydi, klassifikatsiya qiladi, qayta tuzadi, bo‘shliq va ziddiyatlarni aniqlaydi;

transfer bosqichida o‘zlashtirilgan usulni standart bo‘lmagan pedagogik vaziyatga ko‘chiradi;

generatsiya bosqichida yangi metodik yechim, loyiha, model, tavsiya, gipoteza yoki ta’limiy mahsulot yaratadi;

refleksiya bosqichida o‘z yechimining dalillanganligi, yangiligi, cheklovi va alternativlarini baholaydi.

Mazkur siklning asosiy afzalligi shundaki, unda “ijodiy mahsulot”ning tashqi noodatiyligi emas, balki uning epistemik sifati — bilimning qanday olingani, nima bilan asoslangani, qaysi mezon asosida qabul qilingani va qanchalik ishonchli jarayon yordamida yaratilgani muhim bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, **“**talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy komponentlari o‘zaro bog‘liqligini epistemik ta’minlash” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifi berilishi ilmiy jihatdan asosli: Talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy komponentlari o‘zaro bog‘liqligini epistemik ta’minlash — talabaning mavjud bilim, usul va namunalarni qayta tiklashdan ularni manba, dalil va epistemik mezonlar asosida tekshirish, qayta tuzish, yangi vaziyatga transfer qilish va dalillangan ijodiy mahsulot yaratishga bosqichma-bosqich o‘tishini

epistemik maqsadlar, sifat mezonlari, ishonchli bilish jarayonlari, adaptiv pedagogik yordam, o‘zini o‘zi boshqarish va refleksiv baholash vositasida tashkil etuvchi didaktik-metodik jarayondir.

Yuqoridagi nazariy tahlil asosida talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy komponentlari o‘zaro bog‘liqligini epistemik ta’minlashning pedagogik shartlarini alohida, bir-biridan mustaqil omillar emas, balki yagona funksional tizim sifatida belgilash maqsadga muvofiq. Chunki diagnostika bo‘lmasa topshiriq differensiatsiyasi formallashadi; epistemik mezon bo‘lmasa ijodiy mahsulotning sifati subyektiv baholanadi; refleksiya va teskari aloqa bo‘lmasa talaba reproduktiv strategiyadan nima uchun va qanday chiqishi kerakligini anglamaydi; pedagogik yordam moslashtirilmasa esa bir guruh talabalar uchun topshiriq haddan tashqari oson, boshqalari uchun esa bajarib bo‘lmaydigan darajada murakkab bo‘lib qoladi. Zamonaviy epistemik bilish, o‘zini o‘zi boshqarish va avtonomiyani qo‘llab-quvvatlash tadqiqotlari aynan o‘zaro bog‘langan ta’lim dizaynining afzalligiga dalil beradi.

Birinchi pedagogik shart — mustaqil ish maqsadi va baholash mezonlarini epistemik mazmun bilan boyitish**.**

Masalan, “Talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim haqida referat yozing” topshirig‘i reproduktiv ko‘chirishni osonlashtiradi. Uni epistemik-kreativ shaklga quyidagicha transformatsiya qilish mumkin: *“Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning kamida uchta ilmiy konsepsiyasini aniqlang; konsepsiyalarning dastlabki yoki ishonchli ilmiy manbalarini ko‘rsating; asosiy qarashlarni bir xil mezonlar asosida qiyoslang; qarama-qarshi yoki bir-birini to‘ldiruvchi pozitsiyalarni ajrating; tanlangan pedagogik vaziyat uchun qaysi konsepsiya ko‘proq asoslanganligini dalillar bilan himoya qiling; uning cheklovini ko‘rsating va o‘zingizning metodik yechimingizni taklif qiling.”* Bunda talaba dastlab mavjud bilimni reproduktiv o‘zlashtiradi, keyin manbani tekshiradi, taqqoslaydi, baholaydi va nihoyat yangi metodik yechim ishlab chiqadi.

Shunga ko‘ra, mustaqil ish rubrikasida faqat “mavzuning ochilishi” va “rasmiylashtirish” emas, balki faktik aniqlik; manbaning ishonchliligi; dalilning relevantligi va yetarliligi; fikrlashning izchilligi; muqobil pozitsiyani hisobga olish; bilimni transfer qilish; ijodiy mahsulotning asoslangan yangiligi; refleksiya sifati kabi mezonlarning mavjudligi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi pedagogik shart — talabaning tayyorgarlik darajasiga mos reproduktiv–rekonstruktiv–evristik–ijodiy topshiriqlar kontiniumini diagnostik-adaptiv tashkil etish.

Bu shartning markazida barcha talabalar uchun reproduktiv va ijodiy ishlarning bir xil qat’iy nisbatini belgilash emas, balki ularning nisbatini diagnostika natijasiga qarab o‘zgartirish turadi. Mazkur nuqta juda muhim: Vazirlar Mahkamasining 824-son qaroridagi “bakalavriatda 50–60 foiz mustaqil ish” ko‘rsatkichi o‘quv yuklamasi taqsimotini anglatadi; bundan “mustaqil ishning falon foizi reproduktiv, falon foizi ijodiy bo‘lishi shart” degan xulosa kelib chiqmaydi.

Ilmiy adabiyotlar universal “optimal 40/60” yoki “30/70” koeffitsiyentini belgilash uchun asos bermaydi. Aksincha, Ponomareva ham reproduktiv va ijodiy topshiriqlar nisbatini talabalarning real o‘quv imkoniyatlari diagnostikasi bilan bog‘lagan, ekspertlikning teskari effekti haqidagi zamonaviy tadqiqotlar esa yo‘riqnoma hajmi talaba tajribasi bilan moslashtirilishi kerakligini ko‘rsatadi.

Shu sababli metodikada topshiriqlarni kamida to‘rt didaktik darajada loyihalash mumkin(1-jadval).

1-jadval.

Reproduktiv va ijodiy topshiriqlar talabalarning real o‘quv imkoniyatlari

		tushuncha va nazariyani qayta bayon qilish; namuna bo‘yicha bajarish; fakt va usullarni tanish		batafsil yo‘riqnoma, namuna, tayanch savollar
	Reproduk-tiv va ijodiy o‘rtasidagi ko‘prik	qiyoslash, tasniflash, xatoni aniqlash, algoritmni o‘zgargan sharoitga moslashtirish		qisman yo‘riqnoma, mezon va promptlar
		muammoni tahlil qilish, savol gipoteza ishlab chiqish, metod tanlash, keysni yechish	manba va dalil tanlash, alternativani baholash	
		metodika, loyiha, model, pedagogik mahsulot, original yechim yaratish va himoya qilish	asoslash, transfer, argumentatsiy, cheklovni aniqlash	avtonomiya, ekspert/peer feedback, refleksiya

Mazkur 1-jadvaldagi darajalarni qat’iy “zinapoya” sifatida tushunmaslik lozim. Zamonaviy productive failure tadqiqotlari ayrim sharoitlarda talabalarga tayyor yo‘riqnoma berishdan oldin murakkab muammoni mustaqil yechishga urinib ko‘rish imkoniyatini yaratish keyingi tushuntirishni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berishi mumkinligini ko‘rsatadi. Sinha va Kapurning 53 tadqiqot va 166 taqqoslashni birlashtirgan meta-tahlilida “avval muammoni yechishga urinish, keyin yo‘riqnoma” dizayni “avval yo‘riqnoma, keyin mashq” dizayniga nisbatan o‘rtacha ustunlik ko‘rsatgan ($g = 0,36$), samaradorlik Productive Failure tamoyillari sifatli amalga oshirilgan holatlarda yuqoriroq bo‘lgan.

Bu dalil reproduktiv va ijodiy faoliyat munosabatini spiralsimon qurish zarurligini ko‘rsatadi. Ba’zan talaba muammoli vaziyat bilan to‘qnashgach, undagi bilim yetishmovchiligini anglaydi; keyingi reproduktiv o‘zlashtirish mazmunliroq bo‘ladi; so‘ngra yangi bilim yana ijodiy yechimga olib chiqiladi. Demak, epistemik ta’minlashning vazifasi faqat “osondan qiyinga” olib borish emas, balki qaysi paytda tayanch bilim, qaysi paytda intellektual qiyinchilik, qaysi paytda yo‘riqnoma va qaysi paytda avtonomiya kerakligini aniqlashdir.

Uchinchi pedagogik shart — reproduktiv bilimni kasbiy muammo, transformatsiya va transfer orqali ijodiy mahsulotga aylantiruvchi autentik topshiriqlar tizimini yaratish.

Reproduktiv va ijodiy komponent o‘rtasida o‘tish yuz berishi uchun ijodiy topshiriq avvalgi bilimlardan uzilgan “erkin fantaziya” bo‘lmasligi kerak. U o‘zlashtirilgan nazariya, tushuncha, metod va algoritmlarni yangi kasbiy vaziyatga ko‘chirishni talab qilishi zarur. Bu holda talaba reproduktiv bosqichda “biladi”, transformativ bosqichda “nima uchun va qaysi sharoitda?” savoliga javob beradi, kreativ bosqichda esa “bu bilim yordamida yangicha nima qilish mumkin?” savoliga o‘tadi.

Pedagogika yo‘nalishida, masalan, reproduktiv topshiriq “formativ baholashning mohiyatini izohlash” bo‘lsa, rekonstruktiv topshiriq ikki xil baholash modelini qiyoslash; evristik topshiriq mavjud darsdagi baholash muammosining sababini aniqlash; ijodiy topshiriq esa muayyan auditoriya uchun formativ baholash texnologiyasini ishlab chiqish, uning mezonlarini asoslash va ehtimoliy cheklovlarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lishi mumkin. Ushbu vazifalar bir mavzu doirasida bilim → dalillash → transfer → yaratish mantiqini ta’minlaydi.

Ponomareva tomonidan bo‘lajak kasbiy faoliyatni o‘quv topshiriqlarida modellashtirish hamda auditoriya, auditoriyadan tashqari va ilmiy-tadqiqot faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash zarurati oldin qayd etilgan. Shu bois mazkur PhD ishida yangilik “kasbiy keys berish”ning o‘zida emas, balki kasbiy keys ichida epistemik operatsiyalarni maxsus loyihalashda bo‘lishi kerak: qaysi da’vo dalil bilan tasdiqlanishi; qaysi manbalar o‘zaro solishtirilishi; qaror qaysi mezonga ko‘ra tanlanishi; alternativ yechim nega rad etilgani; yaratilgan mahsulotning qaysi qismi mavjud bilimga, qaysi qismi mualliflik transformatsiyasiga tegishli ekanligi ochiq ko‘rsatiladi.

To‘rtinchi pedagogik shart — o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish, pedagogik struktura va talaba avtonomiyasining muvozanatini ta’minlash.

Mustaqil ish pedagogik jihatdan samarali bo‘lishi uchun “mustaqillik”ni o‘qituvchining yo‘qligi bilan tenglashtirish mumkin emas. Haqiqiy mustaqillik talabaning o‘z maqsadini tushunishi, vaqtini rejalashtirishi, resurslarni tanlashi, faoliyatini monitoring qilishi, qiyinchilikni aniqlashi, strategiyani o‘zgartirishi va natijani baholashi bilan namoyon bo‘ladi. Bular self-regulated learning — o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganishning asosiy funksiyalaridir.

Edisherashvili, Saks, Pedaste va Leijen oliy ta’limdagi masofaviy o‘qish bo‘yicha 38 tadqiqotni tizimli tahlil qilib, o‘zini o‘zi boshqarishni qo‘llab-quvvatlovchi intervensiyalar metakognitiv, kognitiv, motivatsion va emotsional sohalarni hamda tayyorgarlik, bajarish va baholash/refleksiya fazalarini qamrab olishi kerakligini ko‘rsatadi. Mualliflar birgina vositaga emas, turli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasiga ehtiyoj borligini qayd etadi.

Shundan kelib chiqib, mustaqil ishning reproduktiv bosqichida o‘qituvchi ko‘proq struktura — algoritm, namunalar, yo‘riqnoma, nazorat savollari va vaqt chegaralarini beradi. Talabaning epistemik va kognitiv kompetensiyasi ortishi bilan bu yordam fading, ya’ni bosqichma-bosqich qisqartirish tamoyili asosida kamayadi: topshiriq variantini tanlash, manba izlash, metodni belgilash, natija shaklini tanlash va xulosani himoya qilish bo‘yicha avtonomiya ortadi. Expertise reversal nazariyasi aynan bir xil darajadagi ko‘mak barcha talabalar va barcha rivojlanish bosqichlari uchun maqbul emasligini asoslaydi.

Bunda struktura va avtonomiyani qarama-qarshi qo‘yish ham noto‘g‘ri. Patzak va Zhangning 94 tadqiqot va 110 effekt hajmini qamrab olgan tizimli sharh va meta-tahlilida o‘qituvchining avtonomiyani qo‘llab-quvvatlashi va aniq strukturani ta’minlashi, odatda, bir-birini kuchaytiruvchi jihatlar ekanligi; ularning uyg‘unligi motivatsiya, jalb etilganlik, avtonomiya va kompetentlik hissi bilan ijobiy bog‘liqligi aniqlangan. Mualliflar aynan avtonomiya va strukturaning birgalikdagi qo‘llanilishi optimalroq ekanligini ta’kidlaydi.

Demak, mazkur tadqiqotda mustaqil ishni tashkil etishning metodik tamoyili: “yuqori nazorat → past nazorat” emas, balki “tashqi pedagogik boshqaruv → birgalikdagi boshqaruv

→ talabaning ichki o‘zini o‘zi boshqarishi” transformatsiyasi ko‘rinishida ifodalanishi maqsadga muvofiq.

Reproduktiv bosqichda nazorat tashqi va aniq bo‘ladi; rekonstruktiv bosqichda talaba o‘qituvchi bilan mezonlardan birgalikda foydalanadi; evristik bosqichda talaba qarorlarni asosan o‘zi qabul qiladi; ijodiy bosqichda esa u o‘z faoliyati uchun maqsad, manba, metod, dalil va sifat mezonlarini ongli tanlaydigan subyektga aylanadi.

Beshinchi pedagogik shart — refleksiv-dialogik, mezonli va rivojlantiruvchi teskari aloqa tizimini yaratish.

Ijodiy mustaqil ishning eng katta metodik xatarlaridan biri tayyor mahsulotni faqat yakuniy ball bilan baholashdir. Yakuniy ball talabaning qaysi fikrlash strategiyasi muvaffaqiyatli bo‘lganini, qaysi dalili sustligini, qayerda reproduktiv ko‘chirishdan chiqa olmaganini yoki o‘zining original g‘oyasini nima bilan asoslash kerakligini ko‘rsatmaydi. Shu sababli reproduktiv–ijodiy o‘tishni ta’minlovchi baholash formativ xususiyatga ega bo‘lishi lozim.

Peer assessment bo‘yicha Ortega-Ruipérez va Correa-Gorospening oliy ta’lim va texnologiya kontekstidagi tizimli sharhida Scopus va Web of Science orqali tanlangan 15 tadqiqot tahlil qilingan. Natijalar talabalar boshqalarning ishini baholash jarayonida tanqidiy-refleksiv va metakognitiv strategiyalarni ishga solishini, ayniqsa bahoga qo‘shimcha ravishda izoh, takomillashtirish taklifi va qayta topshirish imkoniyati berilganda jarayon o‘zini o‘zi boshqarishni kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Sharh rubrikadan foydalanish, bahoni majburiy izohlash va feedback asosida ishning takomillashtirilgan variantini ishlab chiqish kabi dizayn elementlarini alohida ajratadi.

Mazkur tadqiqot uchun bu mexanizm quyidagi siklga aylantirilishi mumkin: birlamchi mahsulot → mezon bo‘yicha o‘zini o‘zi baholash → tengdosh ekspertizasi → dalilli feedback → mahsulotni qayta ishlash → yakuniy epistemik refleksiya.

Bu siklda talaba faqat “xatoni tuzatmaydi”, balki *nega xato qilganini, qaysi mezonni noto‘g‘ri qo‘llaganini, qaysi manba yoki dalil yetishmaganini va yangi variant qanday yaxshilanganini* izohlaydi. Natijada baholash faoliyati mustaqil ishning tashqi nazorati emas, uning epistemik tarkibiy qismiga aylanadi.

Ayniqsa, ijodiy mahsulotni baholashda “original” va “to‘g‘ri” tushunchalarini ajratish kerak. Har qanday yangicha fikr ilmiy jihatdan maqbul emas; u epistemik ideallar — dalilga moslik, mantiqiy izchillik, nazariy asoslanganlik, metodik maqsadga muvofiqlik, amaliy qo‘llanuvchanlik va zarur hollarda falsifikatsiya qilinish imkoniyati kabi mezonlardan o‘tishi kerak. AIR modelining pedagogik qiymati ham shunda: u ijodkorlikni epistemik sifat nazoratidan ozod qilmaydi.

Oltinchi pedagogik shart — axborot manbalarini kritik verifikatsiya qilish va raqamli epistemik izni qayd etuvchi ta’lim muhitini yaratish. Zamonaviy talabaning mustaqil ishi darslik bilan cheklanmaydi: elektron ilmiy bazalar, qidiruv tizimlari, ochiq resurslar, raqamli kutubxonalar va sun’iy intellekt vositalari talabaning axborot maydonini keskin kengaytiradi. Shu sharoitda reproduktiv faoliyatning eng xavfli shakli — topilgan birinchi matnni bilim deb qabul qilib, uni qayta ishlash yoki o‘zlashtirilmagan holda ko‘chirishdir. Shuning uchun mustaqil ishning reproduktiv komponenti ham epistemik jihatdan modernizatsiya qilinishi kerak: talaba faktni shunchaki topish emas, manbaning kim tomonidan, qayerda, qachon,

qanday metod va qanday dalillar asosida yaratilganini tekshirishni o‘rganishi lozim. Fendt, Muth va Edelsbrunnerning 64 nazoratli eksperimental tadqiqotni birlashtirgan 2025-yilgi meta-tahlilida manba ishonchliligini baholashga maxsus o‘rgatish umumiy hisobda ijobiy ta’sir ko‘rsatgan ($g = 0,42$; $p < 0,001$); mualliflar ayniqsa lateral reading, ya’ni bir manbaning o‘zidagi da’volar bilan cheklanmay, uning ishonchliligini tashqi mustaqil manbalar yordamida tekshirish strategiyasining istiqbolli ekanligini qayd etadi. Ochiq Internetdan foydalanilgan intervensiyalarda ham samaradorlik yuqoriroq bo‘lgan.

Bu natijaga tayangan holda, talabaga “kamida beshta manbadan foydalaning” kabi faqat miqdoriy talab qo‘yish o‘rniga quyidagi epistemik manba protokolini joriy etish maqsadga muvofiq: manbani aniqlash → muallif/institutsional maqomini tekshirish → nashr turi va ilmiy ekspertizasini aniqlash → da’voning dalil bazasini ko‘rish → boshqa mustaqil manba bilan qiyoslash → qarama-qarshi dalilni izlash → manbaning vazifa uchun relevantligini baholash → foydalanish sababini qisqa asoslash.

NATIJA

Yuqorida asoslangan pedagogik shartlarni birlashtirish asosida talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy komponentlari o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash metodikasining markaziga “reproduksiya – verifikatsiya – rekonstruksiya – transfer – generatsiya – refleksiya” siklini joylashtirish mumkin. Ushbu sikl tayyor metodikaning yakuniy nomi sifatida emas, dissertatsiyaning keyingi bobida modellashtirilishi va tajriba-sinovda tekshirilishi lozim bo‘lgan nazariy konstruksiya sifatida taklif etiladi(2-jadval).

2-jadval.

Talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy komponentlari

		Reproduktiv–ijodiy		
	asosiy tushuncha, nazariya va usulni tiklaydi		“Men nimani bilaman?”	
			“Buni qayerdan va nima asosida bilaman?”	
			“Bilimlar qanday bog‘langan yoki qarama-qarshi?”	
	bilimni yangi vaziyatga ko‘chiradi		“Bu boshqa vaziyatda qanday ishlaydi?”	
	yangi metod, model, loyiha		“Men qanday yangi yechim	

	yoki gipoteza yaratadi		taklif qila olaman?”	
	mahsulot, jarayon va cheklovni baholaydi	ikki komponent yangi darajada birlashadi	“Natijam qanchalik asosli va uni qanday yaxshilayman?”	

Bunday siklda har bir keyingi topshiriq oldingi topshiriq mahsulotidan foydalanishi lozim. Masalan, birinchi topshiriqda to‘plangan va tekshirilgan nazariy material uchinchi topshiriqda qiyosiy jadvalga, to‘rtinchida pedagogik keysni hal qilishga, beshinchida metodik loyiha yaratishga, oltinchida esa loyiha bo‘yicha refleksiv hisobotga aylanadi. Shu tariqa topshiriqlar “alohida mustaqil ishlar” to‘plami bo‘lib qolmay, yagona bilim yaratish trayektoriyasini tashkil etadi.

XULOSA

. Talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan tabiiy ketma-ketlik emas, balki maxsus pedagogik va epistemik shartlar asosida boshqariladigan transformatsion jarayon sifatida baholash mumkin. Reproduktiv faoliyat talabaning tayanch tushunchalar, qonuniyatlar, usullar va faoliyat algoritmlarini egallashini ta’minlaydi; ijodiy faoliyat esa mazkur bilimlarni nostandart vaziyatda qayta tuzish, transfer qilish va yangi pedagogik mahsulot yoki yechim yaratishga xizmat qiladi. Ularning samarali bog‘lanishi tayyor bilimni shunchaki takrorlashdan ijodiy mahsulot yaratishga keskin sakrash orqali emas, balki epistemik verifikatsiya, rekonstruksiya, transfer, generatsiya va refleksiya jarayonlari vositasida ro‘y beradi.

2. Talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy komponentlari o‘zaro bog‘liqligini epistemik ta’minlashning asosiy pedagogik shartlari sifatida: mustaqil ishning maqsad va baholash mezonlarini epistemik mazmun bilan boyitish; talabalar tayyorgarligini diagnostika qilish asosida reproduktiv–rekonstruktiv–evristik–ijodiy topshiriqlar kontiniumini adaptiv loyihalash; o‘zlashtirilgan bilimlarni autentik kasbiy muammo va transfer topshiriqlari orqali ijodiy mahsulotga transformatsiya qilish; pedagogik struktura, scaffolding va talaba avtonomiyasi o‘rtasida dinamik muvozanat yaratish; o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya, formativ va tengdoshlar baholashini mustaqil ish jarayoniga kiritish; shuningdek, axborot manbalarini verifikatsiya qilish va bilim yaratish jarayonini raqamli tarzda qayd etuvchi epistemik ta’lim muhitini shakllantirish belgilandi. Ushbu shartlarning o‘zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi reproduktiv bilimni ijodkorlikni cheklovchi omildan uning tayanch resursiga aylantiradi.

3. Reproduktiv va ijodiy komponentlarning “optimal nisbati”ni barcha talabalar uchun yagona foiz orqali ifodalash ilmiy jihatdan asosli emas. Bu nisbat ta’lim bosqichi, fan mazmuni, topshiriq murakkabligi, talabaning tayanch bilimi, mustaqil ishlash tajribasi va epistemik

kompetensiyasiga ko‘ra dinamik o‘zgarishi kerak. Kam tayyorlangan talaba uchun namuna va algoritm katta hajmda zarur bo‘lishi mumkin; kompetensiya rivojlangan sari tayanchning kamayishi va mustaqil qarorlar ulushining ortishi talab etiladi. Ayrim vaziyatlarda esa muammoli-ijodiy urinish reproduktiv o‘zlashtirishdan oldin joylashtirilib, keyingi nazariy bilimga ehtiyojni yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat reproduktiv va ijodiy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni adaptiv, rekursiv va spiralsimon jarayon sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli Qarori

4. Abduqodirov A.A, Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti// Monografiya. –Toshkent. 2009. –146 b.

5. Rashidxon Uulu, Atabek “Talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liqligini epistemik ta’minlash” Monografiya / Atabek Rashidxon Uulu. – Namangan: “Sunrise-pro” nashriyoti, 2026. – 140 b.

6. Auezova R.T. The organization of independent education of future teachers // Tálim fan va innovasiya 2023. – № 3. –B. 405-408.